

Doimiy aholi soni. Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 3833,1 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 34,4 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1425,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 2407,2 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-iyun

Doimiy aholi soni **34,4 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **44,5 ming nafarni** tashkil etdi.

7,9 mingta vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **11,6 mingta nikoh** va **1,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-iyun, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
Doimiy aholi soni, davr oxiriga	3753,2	3833,1
Tug'ilganlar	42,5	44,5
Vafot etganlar	7,7	7,9
Aholining tabiiy o'sishi	34,8	36,6
Kelganlar	6,6	4,4
Ketganlar	8,1	6,9
Migratsiya sa'ldosi	-1,5	-2,5
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	11,9	11,6
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	1,9	1,7
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	22,9	23,5
o'lim	4,2	4,1
aholining tabiiy o'sishi	18,7	19,4
tuzilgan nikohlar	6,4	6,1
nikohdan ajralishlar	1,0	0,9


Doimiy aholi soni

(1 iyul holatiga)

	2018 y.	2019 y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Samarqand viloyati	3753,2	3833,1	102,1
Samarqand sh.	533,6	542,4	101,6
Kattaqo'rg'on sh.	87,2	88,7	101,7
tumanlar:			
Oqdaryo	153,8	156,9	102,0
Bulung'ur	180,5	184,3	102,1
Jomboy	165,0	169,6	102,8
Ishtixon	244,4	250,0	102,3
Kattaqo'rg'on	264,1	269,2	101,9
Qo'shrabot	126,8	129,6	102,2
Narpay	206,6	210,2	101,7
Payariq	240,8	246,5	102,4
Pastdarg'om	341,8	349,0	102,1
Paxtachi	139,9	142,5	101,9
Samarqand	243,4	248,5	102,1
Nurobod	145,0	148,1	102,1
Urgut	487,0	499,9	102,6
Tayloq	193,3	197,7	102,3

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2019 yil 1 iyul holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urgut tumanida 13,0 %ni, Pastdarg'om tumanida 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanida 7,0 %ni tashkil etgan.


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 44 531 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,5 promilleni tashkil etdi, hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 22,9 promille bo'lgan) kuzatildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni (yanvar-iyun, kishi)




Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 7 852 kishini o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega pasayish (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan) kuzatilda.

Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun)




Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-iyun holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)




2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,1 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,6 %i - o'simtalardan, 5,3 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,2 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,4 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 62,3 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,7 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,6 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,9 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,1 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 36 679 kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1 897 kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 34 782 kishi bo'lgan) o'sgan.



Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 11 583 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot tumanida (17,1 %), Bulung'ur tumanida (7,4 %), Tayloq tumanida (3,9 %), Paxtachi tumanida (1,1 %) va Payariq (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Samarqand viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun)




Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 1 709 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.


2018 yilning mos davriga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Paxtachi (0,8 dan 1,0 promillega), Narpay (0,8 dan 0,9 promillega), va Tayloq (0,7 dan 0,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Samarqand viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun)



Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 400 kishini ko'chib ketganlar soni esa 6 875 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 2 475 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1 501 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*ming kishi*)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	6 618	4 400
Ko'chib ketganlar	8 119	6875
Migratsiya sa'ldosi	-1 501	-2 475

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Payariq tumanida (minus 449 kishi), Kattaqo'rg'on tumanida (minus 398 kishi), Urgut tumanida (minus 372 kishi) Bulung'ur tumanida (minus 257 kishi), Ishtixon tumanida (minus 234 kishi), Paxtachi tumanida (minus 207 kishi), Nurobod tumanida (minus 201 kishi), Oqdaryo tumanida (minus 200 kishi) Qo'shrabot tumanida (minus 184 kishi) hamda Pastdarg'om va Narpay tumanlarida (minus 101 kishi) qayd etildi.

Migratsiya sa'ldosining ijobiy darajasi Samarqand shahrida (plus 242 kishi), Jomboy tumanida (plus 137 kishi) kuzatildi.